

ESKI TERMIZNING TARIXIY TARAQQIYOTIDA TERMIZ
SAYYIDLARINING O'RNI

Muhammadiyev Zohid Odinamuhamat o'g'li

"Sales doctor solution" kompaniyasi mutaxassisi

zoxidmuxammadiev15@gmail.com

+998970761705

ANNOTATSIYA Ushbu maqola Termiz shahrining qadimiy tarixi shakllanishi rivojlanishi qadimdag'i nomlanishi, qal'alari, maqbaralari va S

Kalit so'zlar: *Termiz, shahar, Tarmita, Husayn, Sayyid, naqib, Sultan Saodat.*

ANNOTATION This article is about the ancient history of the city of Termez, its formation, development, ancient name, fortresses, mausoleums and Sayyids. ayyidlari haqida.

Keywords: *Termez, city, Tarmita, Hussein, Sayyid, Naqib, Sultan Saodat.*

O'zbekistonda tarixi asrlar qa'riga borib taqaladigan, yoshi minglab yillar bilan o'lchanadigan shaharlar kam emas. Serquyosh Termiz ham shunday shaharlar jumlasidandir. Termiz O'rta Osiyodagi kelib chiqishi va tadrijiy taraqqiyoti bir joyda kechmay, o'zi mavjud bo'lgan barcha davrlarni aks ettiruvchi madaniy qatlamlar birin-ketin to'planib, qadimshunos ko'z oldida zamonlarning uzluksiz almashinuvini namoyon qilgan shaharlaar jumlasiga kiradi. Termiz Sharqdagi qadimiy shaharlardan biri bo'lib, arab va yunon manbalarida keltirilgan ma'lumotlar va arxeologik topilmalar bu haqda guvohlik beradi.

Qadimgi Sharq sivilizatsiyasining shakllanishida Termizning o'ziga xos o'rni bor. Buyuk Ipak Yo'lining muhim bir tarmog'i ham Termiz orqali o'tgan. Yozma manbalarga qaraganda shaharga miloddan avvalgi I ming yillikning o'rtalarida asos solingan. Rivoyatlarga ko'ra esa Termizni miloddan avvalgi VII-asrda Baqtrianing birinchi podshosi Zaraostr bunyod etgan deyiladi. Termiz tarixiga kirgan ilk nomlardan biri Taramasta-Taramata (baqtrcha-daryo qirg'og'i) yoki Hofizi Abruyning yozishicha, shahr nomi TARAMASTXA "narigi sohildagi manzil "so'zlaridan olingan bo'lib, asrlar davomida turlicha atalib kelgan. Ayrim boshqa manbalarda shaharning eng qadimgi nomi TARMITA bo'lib, ilk o'rta asrlarga oid arman manbalarida "Drmat" tarzida mashhur bo'lgan. Jumladan "Tarmid, Tarmiz, Tami, Tamo, Demetrias" X-asrdan bugungi kundagi nomi bilan yani Termiz deb atala boshlagan.

Ko'hna Termiz Sug'diyona, Xorazm, Marg'iyonava Parfiya davatlari bilan madaniy va savdo aloqalarini o'rnatgan. Topilmalarga qaraganda, shaharning Hindiston bilan madaniy va savdo aloqalari ham juda mustahkam va faol bo'lган. Termiz III-IIasrlarga kelib Baqtrianing eng rivojlangan, siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biriga aylangan. Shaharning gullab yashnagan davri (miloddan avvalgi I-asr oxiri- milodiyI-II-asrlar) Kushonlar hukmronligi davriga to'g'ri keladi. Bu davrda Termiz hududiy jihatdan kengayib, Shimoliy Baqtryanining yirik shahriga aylangan. Islomiyat fatxi davrida (686-704) Tremiz 70 gektarga yaqin maydonni egallagan, murabba' yani to'rtburchak shakldagi qal'adan iborat bo'lgan. Shaharda bu davrga oid me'morlik va hunarmandchilik binolari va namunalari, turli

nafis sopol va shisha idishlar, fil suyagi, qimmatbaho metal va toshlardan tayyorlangan zargarlik buyumlari kabi topilmalarning ko'plab qayd etilishi shahr yirik savdo markazi vazifasini o'taganini isbotlaydi. O'sha davrda Termiz Kushonlar davlatining muhim shahri va budizmnint markazlaridan biri bo'lgan. X asrda yozilgan "Xudud ul -olam" asarida Termiz "Jayxun bo'yidagi ko'rkan va obod shahar. Qalasi daryo bo'yida , ulkan bozori mashhur, Xuttalon va Chag'oniyon ahli shu yerda savdo qiladi" deb tariflanadi. Shulardan eski shahar qismida Termizshohlar saroyi saqlanib qolning.

Termizshohlar saroyi Termiz hukmdorlarining qarorgohi bo'lib, XI-XII asr me'morligining diqqatga sazovor namunalaridan. Termiz vaqt-i-vaqt bilan G'aznaviyalar, Qoraxoniylar, Qoraxitoylar, Saljuqiylar, Xorazmshoxlar davlatlari tarkibida bo'lgan. 1220-yilda shahar mo'g'ullar tomonidan vayron qilingan. Chunki xaql mo'g'ullar bosqiniga qattiq qarshilik ko'rsatagan. Bu haqda Sharifiddin Ali Yazdiyning "ZAFARNOMA" asarida yozib qoldirilgan shu boisdan ham shahar "Madinat ur-rijol" yani "Mardlar shahri" deb atalgan. XIV asrning ikkinchi yarmi XV asr boshida Termiz Amir Temur davlatining muhim shaharlaridan biri bo'lib, qoldi. Amir Temur 1399-yil Hindistonga yurish oldidan Termizga kelib, shu yerlik sayyidlar mozorlarini, shuningdek Hakim At- Termiziy va Abu Bakr Varroq maqbaralarini ziyorat qilgan. Shaharning Amir Temur davriga oid tavsifi haqida Kastiliya qiroli GenrixIII ning Amir Temur saroyidagi elchisi Ruyi Gan sales de Klavdixo juda yaxshi ma'lumot yozib qoldirgan. "Shu kun bu yerga elchilar kelgan bu shahar – Termit katta va aholisi ko'p shahar edi; hech narsa bilan o'rab olinmagan, atrofida bog'lar ko'p va suv mo'l edi. Bu shahar haqida, unga kirgach, hamma vaqt har xil narsa sotilayotgan maydonlar va serodam ko'chalar oraqli o'tib, uzoq vaqt yurib,o'z manzilimizga alam bilan kelganimizdan bo'lak hech narsa deya olmayman". Amir Temur vafotidan so'ng vorislari o'rtasidagi toj taxt uchun bo'lib o'tgan o'zaro kurashga qaramay, Termiz Temuriylar davlatida muhim ahamiyatga shaharligacha qolaverdi. Ibn Battuta va Klavixo ma'lumotlariga ko'ra, shahar ravnaq topgan davr XIV-XV boshiga to'g'ri keladi. Bu yerda o'z zarbxonasi bo'lgani va unda 1307 yildan boshlab XV asrning dastlabki yillarigacha har yili pul zarb qilingani bilan tasdiqlandi. Bu tangalarning ters tomoniga

Termizning sifati – " Madina-tur-rijol" , ya'ni "Mardlar shahri" iborasi zarb etilgan. Bu davrda Termizda ko'chalar tarmog'i yaxshi rivojlandi va masjidlar, karvonsaroylar, hammomlar, savdo rastalari joylashgan maydonlarga kelib tutashar edi. Qurilishda asosan xom g'isht, kamdan kam hollarda pishiq g'isht ishlatalar, yog'och armatura vazifasini bajarardi. Turar joy va xo'jalik binolari tarkibidagi gumbazli mahobatli mehmonxonalar ajralib turardi. Binolarning ichi sodda edi, devorlar qalin loysuvoq qilinib, ustidan yupqa ganch bilan suvalgan va oq yoki yashil rang berilgan. Hozirgacha saqlanib qolgan Qirqqiz xonaqoxi hamda Termiz sayyidlari xonadoni xilxonasi-Sulton Saodat ham o'sha Termiz hududida joylashgan. Termiz sayyidlari Amir Temur vafotidan keyin, uning vorislari davrida ham o'z ta'sirini saqlab qolishgan. Lekin shahar nufuzidan mahrum bo'la bordi. Buning asosiy sababi esa zarbxonaning ishlamay qolishi edi. XVI asrda, Shayboniylar davrida shahar hayoti tanazzulga yuz tutdi. Eski Termiz qal'a tarafga qarab surilib bordi , shahar bo'shab shimolda joylashgan Solihoboddagina hayot saqlanib qoldi. Bu qishloq XX asr boshida ham mavjud edi, unda

Termiz Sayyidlarining ko'plab avlodlari yashab turardi. Shu o'rinda haqli savol tug'iladi. Termiz sayyidlari kimlar bo'lishgan. Termiz sayyidlari ko'hna shahrimizda yetishib chiqqan ko'plab buyuk tarxiy siymolarning hayoti va faoliyati Termizning insoniyat tarixida o'chmas iz qoldirishda asosiy sabab bo'lgan. Ana shunday buyuk tarixiy insonlar orasida Termiz sayyidlari namoyondalari turli davrlarda Termizning siyosiy tizimida hamda ijtimoiy hayotida muhim rol o'ynagan." Sayyid " so'zi lug'atan arabchada "janob" ma'nosini anglatib payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom avlodlarining faxriy unvonidir. Aynan Sayyid atamasini biroz kengroq tushunadigan bo'lsak , rasulimiz Muhammad alayhissalom avlodlariga va ayniqsa ularning nabiralari – al-Xusayndan ketadigan tarmog'iga nisbatan qo'shiladi. Musulmon dunyosida sharif, xoja, xo'ja ,to'ra so'zleri sayyid atamasining sinonimi sifatida ishlatiladi. Ayrim hollarda Muhammad alayhissalomning nabiralari Xasan avlodи sharif va Husayn avlodи sayyid unvoni bilan alohida ajratiladi. Termiz sayyidlari xonadoniga oid ma'lumotlar sharq yozma merosining mashhur namunalari orqali yetib kelgan. Termiz sayyidlari xususida Ota Malik Juvayniy, Hamidullo Qazviniy, ibn Battuta G'iyosiddin Ali va boshqa allomalarning durdona asarlarida ma'lumotlar keltirilgan.

Termiz sayyidlari xonadoni tarixini o'rganishdagi asosiy manba ularning oilaviy shajarasidir. Termiz sayyidlari o'z shajaralarini to'rtinchи imom – Zaynilobiddin Ali ibn al-Husaynning (680-695 yillar) nabiralaridan biri Ubaydulloh al-A'rajga taqaydilar. Naql qilinishicha, Ali ibn Abu Tolibning Fotima onamizdan tug'ilgan o'g'li Husayn so'ngi sosoniy shohi Yazgirdning qiziga uylanadi. Ularning o'g'llari Alidan Husayn–al Asqar, undan keyin esa Ubaydullo dunyoga keladi. Xalifa al Mansur davrida (754-755) Amir Ubaydulo xalifa deb e'lon qilinadi. Uning o'g'li Ja'far al-Hujjat Madina hokimi edi., Termiz sayiddlari xonadonining asoschisi Xasan al-Amir Ja'far al- Hujjatning o'g'li Amir Husaynning farzandidir.keltirilgan shajara musulmon dunyosida keng tarqalgan bo'lib, ko'p manbalarda uchraydi. Markaziy Osiyodagi sayyidlар xonadonining ko'pchiligi o'z shajarasini shu shaxsgacha olib borib yetkazishadi. IX asrda yirik shaharlarda sayyidlар o'zleri orasidan naqibi yani raxbarlari saylana boshlandi. Naqiblar asosan huquqiy masalalarni,nafaqalarni tarqatish kabi vazifalarni bajarishgan. O'rta Osiyodagi ko'plab shaharlarda naqiblik lavozimiga Termiz sayyidlari avlodidan bo'lganlar o'tkazila boshlandi. Termiz sayyidlarining shajarasini keltirilgan "Sayyidino" risolasiga ko'ra , al- Hasan al –Amir Balxdan Termizga 865 yilda ko'chib kelgan. Rivoyatlarga ko'ra u Somoniylarning Halifa al- Mutavakkildan Balx hukmdorligini olgan bobokaloni Arqoqqa katta xizmat qilgan. Keyinchalik Somoniylar Termiz sayyidlarga juda katta hurmat-ehtirom ko'rsatishgan. Sayyidlardan biri amir Abdulloh Ismoil ibn Ahmad Somoniyning qizi Mohisiymo ismli qiziga uylangan. Shundan so'ng Termiz sayyidlarining avlodlari "xudovandzoda", ya'ni shaxzoda unvonini olishgan. Termiz sayyidlarining Sulton Saodat nomli maqbara majmuasining ilk poydevori somoniylar davrida qurila boshlangan edi. Ushbu maqbara X-XVII asrlar davomida qurilgan bo'lib, o'iga xos me'moriy majmua bo'lgan. Majmuaning bu kabi nomlanishi arab tilidan tarjima qilganda – "Baxtlilar Sultoni" demakdir. Termiz sayyidlarining yetakchilari – naqiblari asrlar davomida "Sulton Saodat" –sayyidlар sultoni unvoni bilan sharaflanganlar. Har ikkala atam o'indosh sifatida foydalanilgan, arab tilida "Bab as-sadat madan as saodat , xubb as sadat miftax as saodat" Ya'ni: "Sayyidlар eshigi, baxt konidir, Sayyidalrga muxabbat baxt kalitidir".

Sayyidlar musulmon jamoalari ijtimoiy muxitida alohida imtiyozga ega guruh bo'lgan hamda dindorlar orasida ularning nufuzi yuqori bo'lgan. Atrofdagilar ongidan sayyidlar ko'pincha avliyolar singari joy olgan. Bu jihatdan shu hol diqqatga sazovorki , ayni

Termiz sayyidlari xonadoni qaror topa boshlagan davrda Hakim at- Termiziy avliyolar to'g'risidagi tasavvurlarni nazariy jihatdan asoslab bergen. Termizga davogar bo'gan G'aznaviyalar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar davrida ham taxmin qilinishicha fuqarolik hokimiyati Termiz sayyidlarining qo'lida bo'lgan. Sayyidlar zotiga tegushlilik uning har qanday avlodining taqdirida katta rol o'ynagan hamda ular ishtirok etgan voqealar, va tadbirlar muvaffaqiyatli yakunlanishiga ta'sir ko'rsatgan. Msalan turli fitnalar, suyiqasdlar, yirik siyosiy va harbiy tadbirlarga jalb etilgan sayyidlar ularda muhim o'rinn tutishgan. Xorazmshoh Muhammad tomonidan Termizning buyuk sayyidlaridan birining xalifa qilib ko'tarilishi ham ularning maqomi so'zsiz e'tirof etilganidan dalolat beradi. Musulmon olami ruhoniy raxbarlarining ko'pchiligi Termiz sayyidlaridan kelib chiqqan. Jaloliddin Rumiyning ustozni Sayyid Burxoniddin Termiziy, shayxulislom Sayyid Abdullo Termiziy kabilarning raxbari Sayyid Alishoh Termiziy va boshqalar o'z faoliyati bilan islomning yoyilishi va mustahkamlanishini ta'minlaganlar.

Akademik Semyonov XX asr boshlarida manbalar ustida uzoq izlanishlar olib bordi va 1914- yil "Termiz sayyidlarining kelib chiqishi va ularning qadimiylarini maqbarasi Sulton Saodat" maqolasini e'lon qildi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida rus sharqshunoslari V.V. Bartold, A.Kun., M.S.Andreyev va boshqalar olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarida Termiz sayyidlari xonadoni to'g'risida to'xtalib o'tadilar. Termiz sayyidalari xonadonining tarixini , mamlakat ravanqi va taraqqiyotini ta'minlashga qo'shgan hissasini , ular abadiy makon topgan maskan haqidagi ma'lumotlarni o'rganish moziy sahifalarini to'ldirishga xizmat qiladi. Ko'hna Termiz mustaqillik yillarda yanada chiroy ochdi va 2001 -yil "Termiz shahrining 2500-yilligi" keng miqyosda nishonlandi. Mamlakatimizda olib borilayotgan ulkan islohotlar va yuksalishlar samarasini o'laroq shahar va unda asrlar davomida o'z salobatini yo'qotmagan

Amudaryo bo'yidagi Termiziy bobomiz maqbaralari Payg'ambarimiz avlodlari abadiy qo'nim topgan Sulton Saodat majmualari qayta tamirlanib ziyoratchilar tashrif buyuradigan obod maskanlarga aylantirildi. Qolaversa yutboshimiz tashabbuslari bilan Termiz shahrida buyuk muhaddis Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining qurilishi islom dini, jumladan hadis ilmini chuqur o'rganishda muxim omil bo'ldi. Ilk marotaba xalqaro baxshichilik festivalining Termiz shahrida o'tkazilishi esa shahrimiz chiroyiga chiroy ko'runga husn qo'shibgina qolmay dunyo xaqlari qarhisida do'stona bag'rini ochdi. Jaxonda tengsiz ana shunday ko'hna shahar osmoni ostida nafas olib turganimdan, buyuk ajdodlar vorisi ekanaligimdan faxr tuyg'usini chuqur his etaman.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Termiz . mualliflar jamoasi. Sharq nashriyoti, Toshkent-2001.
2. O'zbekistonning janubiy hududlarida nomoddiy madaniyat tarixi.
S.N.Tursunov, T.P.Pardayev, A.S.Tursunov, M.R.Tog'ayeva. Muharrir nashriyoti.
Toshkent-2012.

3. Surxon vohasi moddiy madaniyat tarixi. S. Tursunov, T.Pardayev, A.Payg'amov, N.Narzullayeva. Muharrir nashriyoti. Toshkent-2013
4. Buyuk Termiziylar.Kenjabek Mirzayev. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2017.
5. Payg'ambar avlodlari Termizga qanday kelib qolgan. Jaloliddin Mirzayev 26.11.2020. maqola. <https://sammuslim>.